



SADRIDDIN AYNIY UY MUZEYI

G'ulomova Ruxshona

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Murod Xasanov

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola Sadridin Ayniy uy muzeyi, hayoti va faoliyati, uy-muzeyining tashkil etilishi, hamda muzeyning bugungu kundagi faoliyati haqida qiziqarli malumotlar bilan tanishish mumkin

Kalitso'zlar. Sadridin Ayniy, uy muzeyi, Samarqand, Tojikiston, Dushanbe, adabiyot, Buxoro, Sharof Rashidov, Registon.

Kirish

Bundan bir necha asr avval Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi va bizning ajdodlarimiz tariximizning eng qora kunlarini boshidan o'tkazganiga qaramay fan, madaniyat, san'at va adabiyot sohasida yetuk shaxslar yetishib chiqdi. Ulardan biri sadridin Ayniydir. Sadridin Ayniy haqiqiy ismi Sadridin Said-Murodzoda 1878-yil, 15-aprel, Buxoro amirligida tavallud topgan tojik va o'zbek sovet yozuvchisi. Shoir, davlat va jamoat arbobi. Sovet davridagi tojik adabiyoti asoschisi, tojik va o'zbek tillarida ijod qilgan. Tojikiston Fanlar Akademiyasining birinchi prezidenti (1951—1954), O'zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi (1943), Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1940), filologiya fanlari doktori (1948), professor (1950). Sadridin Ayni 1927 yilda akademiya deb nomlangan hozirgi Samarqand Davlat Universitetini tashkilotchilaridan biri bo'lgan. 1941 yilda Amir Temur qabrini ochish ishlarida qatnashganlaridan biri. Bundan tashqari klassik fors-tojik adabiyotining asoschisi Abu Abdulloh Ro'dakiy qabrini ochishda ham ishtirok



etgan. Mashhur shaxslar I.V. Stalin, M. Gorbukiy, Ya. Kolas, Yu. Fuchik kabi mashhur darg'alar bilan shaxsan uchrashgan. Tojikiston Qahramoni unvoni sohibi (1998), qator sobiq SSSR orden va medallari sohibi^[1]. 2001-yilda o'zining

1

1

beqiyos iste'dodi, o'lmas ijodiy merosi bilan o'zbek milliy madaniyati rivojiga hissa qo'shgan uchun O'zbekiston Respublikasining „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan mukofotlangan.

Yozuvchining idorasi. Sadriddin Ayniyning sobiq uyi eski shahar markazida, Registon ko'chasida, Registon maydoni va ansambli hamda Amir Temur maqbarasidan uncha uzoq bo'lmagan joyda joylashgan. Bu xonadonda Sadriddin Ayniy 1917-yilda Buxoro amiri Said Olimxon ta'qibidan yashirinib yurgan kezlari yashgan. Umuman olganda, Ayniy bu uyda deyarli 35 yil, 50-yillarning boshigacha yashadi. Uy ikki qismga bo'lingan bo'lib, birinchi qismi XVIII asr oxiri – XIX-asr boshlarida, ikkinchi qismi esa 1930-yillarda Ayniyning o'zi va uning do'stlari tomonidan qurilgan.

Uy-muzeyi. 1967-yilda O'zbekiston rahbari Sharof Rashidov tashabbusi bilan Ayniy uy-muzeyi ochildi. Uy-muzeyda Sadriddin Ayniyning yashash xonalari va ikkita ish xonasi saqlanib qolgan. „Odina“, „Eski maktab“, „Qullar“, „Yatim“, „Mukanna qo'zg'oloni“ kabi asarlarini aynan shu xonadonda yozgan va unga tojik va o'zbek adib va adiblari orasida shuhrat keltirgan. Uy-muzeyda sovet va sovet davridan oldingi buyumlar, mebel va buyumlarni, yozuvchining shaxsiy buyumlarini, stolini ko'rishingiz mumkin. „Naqshinkor“ (naqshli, bo'yalgan) deb ataladigan bir xonaning burchagida u qishda isingan sandal joylashgan. Qo'shni dam olish xonasida esa G'afur G'ulom, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdullo G'ani, Mirtemir, Usmon Nosir, Hamid Olimjon kabi mehmonlarni va ba'zan Ayniylikida tunab qolishga keladigan boshqa mashhur shoir va yozuvchilarni qabul qilgan. Uyning hovlisida Ayniyning o'zi ekkan daraxtlar o'sib yotibdi, ular orasida: ikkita olma daraxti (yozuvchining sevimli mevasi), shaftoli va uzum bor[2].

¹ Sadriddin Ayniy „Qisqacha tarjmayi xolim“ asarlar 8- jildlik 1-jild T-O'zdavrnashr 1963



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

Shuningdek, uyda uning asarlari, yozuvchining ko‘plab tillarda nashr etilgan kitoblari, o‘sha davr gazeta va jurnallarida chop etilgan asl qo‘lyozmalari ko‘rgazmasi tashkil etilgan. Ekspozitsiyadan o‘zbek tilida 8 jildlik, tojik tilida 15 jildlik, rus tilida 6 jildlik, shuningdek, fors va boshqa tillarda bir necha jildlik kitoblar o‘rin olgan. Uzoq vaqt davomida ko‘chada, ya’ni Ayniyning uyi yonida bo‘lgan Sadriddin Ayniy byusti uyning hovlisida o‘rnatilgan. Shuningdek, ushbu uy-muzeyda madaniy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar o‘tkazib turiladi.

2018-yil 2-fevralda O‘zbekiston hukumati mashhur tojik yozuvchisi Sadriddin Ayniyning Samarqand shahridagi uy-muzeyini ta’mirdan chiqarish haqida qaror qabul qildi. Mamlakat hukumati uyni ta’mirlash uchun 300 mln so‘m (37 ming dollar) ajratdi.

«Biz umid qilamizki, uy-muzey buyuk Sadriddin Ayniy tavalludining 140 yilligi arafasida to‘la ta’mirdan chiqariladi», - deya aytib o‘tgan O‘zbekiston tojiklar jamiyati faoli Amina Sharofiddinova.

2

Samarqand shahrida 2019-yil 22-may kuni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmalari Samarqand viloyati bo‘limlari, tojik va tojikzabon milliy-madaniy markazi viloyat bo‘limi va Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi hamkorligida «Samarqandda ayniyshunoslik» - «Aynishinosi dar Samarqand» kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda ishtirok etgan adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchi va talabalari Sadriddin Ayniy adabiy merosi, hayoti, ijodi, uning xalqlar do‘stligi va yoshlarning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishida tutgan o‘rni, kitobdan joy olgan maqolalar mazmun-mohiyati haqida so‘z yuritdi.

- Sadriddin Ayniyning 141 yilligiga bag‘ishlab chop etilgan mazkur kitobda uning ma’naviy, ilmiy merosi, xalqlar o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik aloqalarini rivojlantirish yo‘lida qilgan xizmatlari haqidagi maqolalar o‘rin olgan, - deydi Samarqand shahridagi Sadriddin Ayniy uy-muzeyi direktori Amriddin Po‘latov. – Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi homiyligida nashr etilgan mazkur kitob bir

² M. Jo‘rayev O‘zbekistonning yangi tarixi 2-kitob “O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida” Toshkent Sharq- 2000



irmoqdan suv ichib kelayotgan o'zbek va tojik xalqlarining do'stligini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Shuningdek, tadbirda viloyat «Ovozi Samarqand» gazetasi tahririyati tomonidan tashkil etilgan «Odamlar do'stlikdan topadilar baxt» tanlovi yakuni e'lon qilindi va mamlakatimizda bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo hamjihatlik, totuvlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritgan g'olib jurnalistlar taqdirlandi [3].

Xulosa

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosatlari sabab qo'shni mamlakatlar, jumladan Tojikiston bilan o'zaro do'stlik va hamkorlik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. O'zaro qo'llab-quvvatlash, birgalikdagi sa'y-harakatlar tufayli mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik rishtalari, umumiy tarix, ma'naviy va madaniy qadriyatlarga asoslangan an'anaviy yaqin va yaxshi qo'shnichilik aloqalari mustahkamlanayotgani mamnuniyat va shukronalik hissini uyg'otadi. Buning amaliy isbotini boshqa ko'plab samarali ishlar qatori hukumatning qarori bilan Sadridin Ayniy uy-muzeyining ta'mirlanishida ham ko'rish mumkinki, aynan shu e'tibor adabiy aloqalar va hamkorlik munosabatlarining yanada yaxshilangani barobarida, yurtimizda o'zaro do'stlik va bag'rikenglikning ustuvor ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Aynan Sadridin Ayniy singari buyuk ijodkorlar ikki davlat xalqlari birlashishida o'z hissalarini qo'shganlar. O'rta qolgan yillar davomida S.Ayniy to umrining oxirigacha Buxoro, Samarqand, Toshkent, Dushanbedagi turli o'zbek, tojik, rus va boshqa qardosh xalqlar adabiyoti va matbuoti xodimlari, shoir va

3

tarjimonlar, yozuvchilar bilan o'zaro yozishmalar, aloqalarini yil sayin kengaytirib, mustahkamlab bordi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki O'zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi, Tojikiston Fanlar akademiyasining akademigi va

³ Samarqandda Ayniyshunoslik" Ayniyshunosi dar Samarqand" Ustoz Sadridin Ayniyning 141- yilligiga bag'ishlanadi Toshkent VNESHINVESTROM, 2019. 232.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

birinchi prezidenti, Tojikiston Qahramoni, O‘zbekiston va Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, Vatanimizning ulkan mukofoti – “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi, filologiya fanlari doktori, professor Sadriddin Ayniyning o‘zbek va tojik tillarida yaratgan boy ilmiy-ma’naviy va tarixiy merosi shu tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning mushtarak boyligi sifatida yangicha metodologiya asosida o‘rganishga tamomila haqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Sadridin Ayniy Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar Moskva SSSR xalqlari markaziy nashriyoti 1926-y.
- 2.Sadriddin Ayniy Qullar/asarlar 8- jildlik 1-jild.T-O‘zdavnashr 1963.
3. Sadriddin Ayniy “Qisqacha tarjmayi xolim” asarlar 8- jildlik 1-jild T-O‘zdavnashr 1963
- 4.B.Valixo‘jayev “Ustoz ayniy me’rosi “-O‘zbek tili va adabiyoti Toshkent- 2003
5. M. Jo‘rayev O‘zbekistonning yangi tarixi 2-kitob “O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida” Toshkent Sharq- 2000.
- 6.Samarqandda Ayniyshunoslik”Ayniyshunosi dar Samarqand” Ustoz Sadriddin Ayniyning 141- yilligiga bag‘ishlanadi Toshkent VNESHINVESTROM, 2019. 232.